

SONNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1kurs 1-24guruh talabasi

Rustamova Madina

Ilmiy rahbar:(...)

Annotatsiya: Ma'lumki, son tushunchasi ona tilimizda keng qamrovli mavzulardan biri sanaladi. Son narsalarning son-sanog'i, joylashish tartibi, miqdoriy belgini ifodalab keladi. Ushbu maqolada sonning leksik-grammatik xususiyati va klassifikatsiyasi haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: son, sonlarning otlashishi, tartib son, taqsim son va h.k.

Abstract: It is known that the concept of number is considered one of the comprehensive topics in our native language. Number represents the number of things, the order of placement, quantitative sign. In this article, we will get brief information about the lexical-grammatical nature and classification of number.

Key words: number, conjugation of numbers, order number, division number, etc.

Абстрактный: Известно, что понятие числа считается одной из всеобъемлющих тем в нашем родном языке. Число обозначает количество вещей, порядок их размещения, количественный знак. В этой статье мы получим краткую информацию о лексико-грамматической природе и классификации чисел.

Ключевые слова: число, сопряжение чисел, порядковый номер, номер деления и др.

Kirish

Predmetning miqdorini, sanog'ini, joylashish tartibini, ba'zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so'z turkumi son deyiladi. Son

necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi so'roqlardan biriga javob beradi. Son otga bog'lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba'zan fe'lga bog'lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: to'rtta daftar, ikki oy o'qidi, birinchi keldi kabi. Sonlar ko'pincha raqamlar bilan yoziladi:

1. Arab raqamlari bilan 1,2,3,4,5,6,7,8,9 kabi

2. Rim raqamlari bilan I (1), II (2), III (3), IV (4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9); o'nliklar: X (10), XX (20), XXX (30), XL (40) kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Asosan sonlar badiiy adabiyotlarda harflar bilan yozilishiga guvoh bo'lganmiz. Men qirq birinchi yil urushga safarbar etildim. Ushbu gapda qirq birinchi yil so'zi sonni harfda ifodalanganligiga guvoh bo'lamiz.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23 ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shularning qo'shilishidan hosil bo'ladi: nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard kabilar. Asosan ularni bir-biriga qo'shib ifodalaymiz. Misol keltiradigan bo'lsak, yuz million, yigirma ikki, sakson million kabi yoziladi.

Eski yozuv tarixiga e'tibor qaratsak, sonlarni boshqacha ko'rinishda yozilgani va talaffuz qilinganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tuman (o'n ming), lak (yuz ming) kabi. Tarixiy asarlarda ushbu frazalarni uchratishimiz mumkin.

Son o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma'nosini ifodalashidir. ya'ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko'ra (ba'zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo'ladi.

2. Son ma'no jihatdan predmetning sanog'ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma'nolarni ifodalaydi. Shu ma'no xususiyatlariga

ko'ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo'linadi. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: uchta, beshovlon, ikkala, yuzlab, to'rttadan, uch-to'rt, o'ninchi kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo'shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o'zgarmaydi, ya'ni egalik, kelishik, ko'rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog'lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: Uy egasi Otabekning yoniga ikkita vostiqlik olib qo'ydi va bittani o'z yonboshiga ham oldi. (A.Oodiriy.) Son hech qachon belgi ifodalovchi so'zni o'ziga tobe qilib kelmavdi aniqlovchi olmaydi.

4. Son bog'lanib kelgan ot qo'llanmaganda, otga qo'shib kelgan so'z o'zgartiruvchi affikslar, ya'ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko'plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o'zgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: Birov tosh, birov gul, o'z joyida ikkovi ham yaxshi (Shukrullo). Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni. (Amir Temur o'g'itlari).

5. Sonlarning hisob so'zlari (numerativlar) bilan birga qo'llanishi uni boshqa so'z turkumlaridan ajralib turuvchi o'ziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob so'zlari ot so'z turkumiga doir bo'lib, u son bilan bog'lanib kelgan ot va fe'l orasida ishlatiladi: ikki daraxt, besh kilogramm olma, o'n kilometr yurdi, to'rt sahifa o'qidi kabi. Sonlar hisob so'zlari bilan ham, hisob so'zlarisiz ham qo'llanadi. (Bu so'zlar haqida quyida to'xtalamiz).

6. Son so'z yasaliş tizimiga ega emas. Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so'z turkumlari yasaliş mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe'l), bit talab (ravish) kabi yasalganiga guvoh bo'lamiz.

Sonlarning sintaktik vazifasi haqida ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak, otga bog'lansa sifatlovchi aniqlovchi vazifasida, fe'lga bog'lansa hol vazifasida, gap oxirida kelsa, ot kesim vazifalarini bajarib keladi.

Sonlarning ma'no turlari uning leksik-grammatik xususiyati bilan bir-biriga bog'liqdir. Tartib son-narsalarning ketma-ketlik tartibini bildirib, qo'shimchalari -nchi,-

inchi hisoblanadi. Ba'zi so'zlardagi o'ninchi ip, yettinchi lampa, qirqinchi ip, to'qson beshinchi choy kabi atamalar tartib ma'nosida emas, balki narsaning sifatini ifodalab keladi. Miqdor son-sanoq son, dona son, chama son, taqsim son, jamlovchi son, kasr sonlarga bo'linadi.

Tilimizdagi mavjud hisob so'zlar: gramm, santimetr, dona, bosh, nafar, tup.

Tarixiy o'lchov birliklari: misqol, botmon, paysa, qarich, yog'och, qalam, gaz, tanob kabi nomlanganiga guvoh bo'lamiz.

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalangan. Ravish so'z turkumiga doir ko'p, oz, kam, mo'l kabi so'zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so'zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar son so'z turkumiga oid emas. Masalan, kundalik hayotimizda judayam kerakli bo'lgan sonlarni haqida ma'lumot beradigan bo'lsak, 01.09.2025 shu ko'rinishda yozilgan sana, kun, yillarni ko'p uchraydi. Xo'sh, ularda ham qa'tiy tartib borligini bilarmidingiz?!

Tartib bo'yicha qaysi oldin turadi? Avvalo, birinchi kun, keyin oy va yil qa'tiy tartibda yoziladi. Agarda ushbu tartib buzilsa, katta muammolarni keltirib chiqaradi.

Xulosa.

Son so'z turkumining asosiy kuzatish obyekti bu sonlar va raqamlar hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, sonlar va raqamlarsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Ushbu so'z turkumini chuqurroq o'rganar ekanmiz, undagi ayrim xususiyatlar boshqa so'z turkumlaridan ustunroq ekanligini guvohi bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- ★ Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. (2007). Ona tili. Toshkent: "Iqtisod-moliya"
- ★ <https://spaceknowledge.com/index.php/JOISR/article/download/1510/1543/2775>